

DANTENING “ILOHIY KOMEDIYA” VA ABDULLA ORIPOVNING “JANNATGA YO‘L” ASARLARIDA UMUMINSONIY G‘OYALAR

Botirova Rayxona

Qarshi davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Bizga ma'lumki, turli xalqlar va mintaqa adabiyotlari o'rtasida o'zaro o'xshash motivlar, umumlashmalar ko'p uchraydi. Bu kabi o'xshashliklar adabiy jarayon va hodisalarning bir-biriga ta'siri deb izohlanadi. Xususan, G'arbiy Yevropada XIV-XVI asrlarda yuz bergan uyg'onish davri adabiyotining ta'sirini XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalarining ijodi misolida ham ko'rish mumkin. Ushbu maqolada so'z italyan shoiri Dantening “Ilohiy komediya” va mutafakkir shoir Abdulla Oripovning “Jannatga yo'l” she'riy dostonlari va ularda aks etgan umuminsoniy g'oyalar xususida boradi.

Kalit so'zlar: *G'arbiy Yevropa Uyg'onish davri adabiyoti, o'zbek adabiyoti, Dante, Abdulla Oripov, “Ilohiy komediya”, “Jannatga yo'l”, umuminsoniy g'oyalar, jannat, do'zax, arosat.*

ABSTRACT

We know that there are many similar motives and generalizations between different peoples and regional literatures. Such similarities are interpreted as the interaction of literary processes and events. In particular, the influence of the literature of the Renaissance in Western Europe in the XIV-XVI centuries can be seen in the works of Uzbek literature of the XX century. This article deals with the Italian poet Dante's “Divine Comedy” and the poet Abdulla Oripov's “Road to Heaven” poetic epics and universal ideas.

Keywords: *Western European Renaissance literature, Uzbek literature, Dante, Abdulla Oripov, “Divine Comedy”, “Road to Heaven”, universal ideas, heaven, hell, ariaat.*

АННОТАЦИЯ

Как известно, между литературой разных народов и регионов существует множество схожих мотивов и обобщений. Подобные сходства трактуются как взаимодействие литературных процессов и событий. В частности, влияние литературы эпохи Возрождения на Западную Европу XIV-XVI веков прослеживается в творчестве узбекских писателей XX века. В этой статье речь идёт о произведении итальянского поэта Данте “Божественной

комедии” и о произведении великого мыслителя и поэта Абдуллы Орипова “Путь к раю” об универсальных идеях в них.

Ключевые слова: Западноевропейская литература эпохи Возрождения, узбекская литература, Данте, Абдулла Орипов, “Божественная комедия”, “Путь к рай”, универсальные идеи, рай, ариат, ад.

KIRISH

Dantening “Ilohiy komediya” si jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo‘lib, ushbu buyuk asarni Abdulla Oripov 28 yoshidan tarjima qilishni boshlaydi va bu ishni katta mahorat bilan ado etadi. Tarjima jarayoni shoirga zavq va ilhom bag‘ishlabgina qolmay, uni yana bir asar yozishga “Komediya”ga mantiqan o‘xshash bo‘lgan “Jannatga yo‘l” dramatik dostonini yaratishiga turtki bo‘ldi. Tarjima ustida ishlar ekan, Abdulla Oripov o‘zining italyan adibi Dante bilan hammaslak, fikrdosh ekanligiga amin bo‘ladi. U buni ko‘pgina uchrashuvlarda ta’kidlar edi: “Agar men Dante bilan suhbatdosh bo‘lib qolsam, nima haqida gaplashar edim? U menga eng yaxshi zamondosh bo‘lardi. Men u bilan bugungi hayot muammolari yuzasidan – yaxshilar va yomonlar, vijdonlilar va vijdonsizlar, halolni xaromdan farq qiladiganlar va qilavermaydiganlar haqida gaplashardim”.¹ Shuningdek, “Jannatga yo‘l” va “Ilohiy komediya”da ham o‘zaro mushtarak jihatlar ko‘zga tashlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abdulla Oripovning "Jannatga yo‘l" asari she'riy drama shaklida yozilgan bo‘lib, voqealar narigi dunyoda, savob va gunohlarni o‘lchaydigan tarozibon (Danteda Minos) qarshisida boshlanadi. Ikkala dostonida ham mualliflar kishilardagi tovlamachilik, sotqinlik, ig‘vogarlik, olchoqlik kabi qusurlarni qoralaydi, hayotda bunday illatlarga qarshi kurashish kerakligini uqtiradi. Umuman, adabiyotda narigi dunyo tasviri o‘rin olgan turli yo‘nalishdagi asarlar talaygina: Fitratning "Qiyomat" hikoyasi, sharq adabiyotida mashhur bo‘lgan "Me'rojnomalar". Mualliflar asarda o‘z g‘oyalarini ifodalash uchun turli usullarni tanlaydilar. Dante “Komediya”sini strukturalar, nazariya va tushunchalar ishtirokida tasvirlagan bo‘lsa, Abdulla Oripov rivoyat usulini tanlaydi. Lekin mohiyat o‘zgarmaydi: maqsad insonning yomon nafsidan hosil bo‘ladigan gunohlarning oqibatini ko‘rsatish va ezgulikni, ishqni, insoniylikni ulug‘lash. Darhaqiqat, ezgulik va ishq, sadoqat kabi fazilatlar insoniyat uchun yorug‘lik, najotdir. Dostonlarda bu g‘oya o‘quvchiga asarning boshlanishidan oxirigacha uqtirib boriladi. Dante va shoir yigit nima

¹ Қўшжонов М., Сувон М.. Абдулла Орипов. Тошкент: “Маънавият”, 2000, 34-бэт

sababdan ilohiy farogʻatga noil boʻldilar? Toʻgʻri, ular xato qildilar, adashdilar, lekin Hazrati insonning odamiyligiga, ezgulikka nisbatan eʼtiqodini oʻzgartirmadilar. Dantening Beatrichega boʻlgan muhabbati sof, taʼmalarsiz, gʻarazsiz edi. Yigit esa inson zotining har qancha tuban ishlar qilib turganining guvohi boʻlganligiga qaramay, uning buyukligiga ishonadi, unga xizmat qildi, soʻnggi damdagi jannatga yoʻl olish imkonidan voz kechib, doʻsti uchun savob ulashdi. “Jannatga yoʻl”da yigit aytgan gaplarni eslaylik:

Ne-ne zotlar gar oʻzlari topsa ham toʻzim,
Odamzotga koʻrmaganlar yomonlik ravo.
Ezgulikning yoʻli ogʻir, sergʻalva garchand,
Yuksaklarga koʻtaradi sohibin biroq.

Ona vatanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan Shiroq, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi singari ismlarni yodga olishimizning oʻzi yuqoridagi toʻrtlikning mazmuniy ifodasi boʻladi. Xuddi shu singari Dantening ham koʻp oʻrinlarda doʻzaxdagi kimsalarga yuragi achishib, qoʻlidan kelsa yordamga shay turganining guvohi boʻlamiz:

O, gar boʻlolsaydim dafʼi balokor,
Qalqon qilar edim oʻzimni shartta.
Ustoz ham boʻlardi shaksiz madadkor.

Lekin hayiqardim oʻtdan, albatta,
Koʻksimga ularni bosolmasdim, oh.
Boqa olmas edim mehr-shavqatda.

Asarlarda Haqning qahriga eng birinchi uchraydigan kimsalar – tirikligida na savob-u na gunoh qilganlar, oʻzini quruqqa olib qochadiganlar jazolanishi koʻrsatilgan. Ular arosatda qoladilar. (“Jannatga yoʻl”da: “...Oʻzga odam: Taqsir mening eng soʻnggi bir arizam shulki, Nahot bekor ketaversa shunchalik tavof?! Tarozibon: Gapni choʻzma, arosatga borasan, chunki, sen na gunoh qilgansan-u na zarra savob. “Ilohiy komediya”da: “...Ustozim dediki: “Bir qavm bordir, Bilar u na shuhrat, na or, na nomus. Shundoq yashab oʻtgan yuzsiz, beordir. Ular bilan birga bebok va beyuz, Loqayd farishtalar toʻdasi ham bor. Na osiy, na sodiq, shundayin betus...”). Doston oxiriga qadar gunohlar ogʻirlashib boradi va soʻngida eng kechirilishi qiyin gunohga qoʻl urganlar – sotqinlar va insonlarning orasini buzuvchilar jazolanadi. Ular Vataniga, doʻstlariga, hatto ota-onasiga yomonlik qilganlar. “Jannatga yoʻl”dagi igʻvogar obrazi odam qolmaganidan yolgʻon ishlatib, hatto oʻz ota-onasining orasini buzgan. Ular yolgʻonga ishonib bir-birini zaharlab

o'ldirishgan. "Komediya"da esa bunday kimsalar(Iuda- Iso payg'ambarga xoinlik qilgan, Brut va Kassiy) do'zaxning eng tubida tinimsiz jazolanadilar. Darhaqiqat, tarozining eng og'ir pallasini insonga qilingan yomonliklar bosishining ko'rsatilishi ham ikki buyuk dahoning insonparvarlik g'oyalari tasviridir. Dante ushbu asarida mansabini suiistemol qiladiganlar, o'z vazifa-yu qilishi kerak bo'lgan amalini bilmaydigan mutaassiblar, papalar haqida juda ko'p so'z yuritadi. Abdulla Oripov bu boradagi so'zini shoir yigit obrazi orqali aytadi. "Ilohiy komediya"dagi mo'tabar zotlar yo'l ko'rsatgan Dantedan farqli o'laroq "Jannatga yo'l" dagi yigit obrazi siz-u bizga xos xato qiladigan oddiy inson. Yigit hayotligida shoir bo'lgan, kishilarga zavq beradigan she'rlar yozgan, ota-onasiga yaxshi farzandlik qilgan, undan hech kimga ozor yetmagan, hatto toshqinda qolib suvga cho'kib ketayotgan qizchaga yordam beraman deb(Dante ham bir ma'sum bolani qutqazaman deb hovuzni buzib yuborgani aytiladi) o'zi halok bo'lgan. Tarozi qarshisida "yomon yashamadim, balki, jannat nasib qilar", degan umid bilan turganida savoblari gunohlaridan ikki paysagina farq qilib qoladi. Yigit tarozibondan eng og'ir gunohini ko'rsatishni istaydi. Tarozi do'zax olovida yonayotgan qorayurak, manfur, hasadgo'y kimsalarni ko'rsatadi. Gap shundaki, shoir o'ziga berilgan ilohiy qobiliyati, o'tkir qalamini yovuz kimsalarning qabih ishlarini fosh qilish, qoralash uchun ishlatmay, faqatgina tog'-u toshlarni, yorning uzun sochi-yu bo'y-bastini kuylash uchun ishlatib yuravergan. Bu o'rinda Abdulla Oripovning she'riyatga, ijodga jiddiy qarashi, shoirlikning jamiyatdagi o'rnini muhim pallalarda ko'rishiga amin bo'lamiz. Zero,"... Shoir o'zining tor dunyosiga biqinib olib, ijod qilishi mumkin emas- u minglab iplar orqali ziddiyatlarga to'la qaynoq hayot bilan bog'langan. Shuning uchun ham u o'z davrining tashvishlari, dardi, ehtirosi bilan yashamog'i lozim..."² Fikrlarimizga Abdulla Oripovning bir to'rtligi juda mos keladi:

Demangki, dunyoning tashvishi qolib,
O'zini har yonga uradi shoir.
Tog'day og'ir yukni kiftiga olib,
Qushday yengil bo'lib yuradi shoir.

Aytish mumkinki, shoirga (umuman har bir kishiga) berilgan ilohiy quvvat, yoniq qalb hamma-hammasi inson manfaati tomon yo'naltirilmog'i lozim. Odam farzandi dunyoga kelibdiki, faqat o'zininggina tor manfaatlari uchun yashab o'tishi

² Шарафиддинов О. Шэрият – қалб ёлкини. "Ҳаёт билан ҳамнафас китобида". Тошкэнт. Адабиёт ва санъат нашриёти.1984.158-бэт.

emas, unga Haq tomonidan berilgan barcha yaxshi xislatlarini insoniyat takomili uchun sarflamog‘i lozim.

XULOSA

Ikki buyuk faylasuf – Abdulla Oripov va Dante o‘z asarlariga insonparvarlik g‘oyalarini singdirgan. Insoniyat asrlardan beri turli xunuk illatlardan xalos bo‘lolganicha yo‘q, lekin bu insonning insoniyligini inkor etishga sabab bo‘lolmaydi. Dante va yigit ko‘rgan voqealar, turfa gunohkorliklarga yo‘l qo‘ygan kishilar-u ularning gunohlari orqali ham, dostonlarda uchragan jannatiy kishilar-u ularning yaxshiliklari orqali ham insonga har doim buyuk hilqat deb qarash, odamlar taqdiriga befarq bo‘lmaslik, u gunohkormi yoki jannatiymi buni farqi yo‘q, har qanday vaziyatda unga yordam qo‘lini cho‘zish va shavqat qilish kerakligi ta’kidlanadi. Bu g‘oya sharq xalqlarida azaldan mavjud bo‘lgan “yomonlikka yomonlik bilan emas, yaxshilik bilan javob qaytarish kerak”, degan maqolni yodga soladi. Shunday yashasagina insoniyat gullab gashnashi, asrdan asrga yorug‘ yuz bilan qadam qo‘yishi mumkin. “Ilohiy komediya” va “Jannatga yo‘l” asarlarini o‘qish bizga mana shunday umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni yodimizga soladi. Shu jihatdan bunday noyob jahon adabiyoti durdonalarining umri uzoqdir.

REFERENCES

1. Орипов А. Танланган асарлар. 3-жилд. Тошкент., 2001
2. Орипов А. Жаннатга йўл. Тошкент., 1980
3. Қўшжонов М., Сувон М..Абдулла Орипов. Тошкент: “Маънавият”, 2000
4. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. Тошкент., 1984